

**ПРЕЗИДЕНТ ИСЛОМ КАРИМОВНИНГ ЎЗБЕКИСТОН  
РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ МАЖЛИСИ ҚОНУНЧИЛИК  
ПАЛАТАСИНИНГ БИРИНЧИ ТАШКИЛИЙ  
ЙИҒИЛИШИДАГИ НУТҚИ**



**12.01.2015**

**Ассалому алайкум, ҳурматли депутатлар!**

Азиз дўстлар!

Авваламбор, юртимизда Конституциямиз ва қонунларимиз асосида, қизгин курашлар руҳида бўлиб ўтган сайловларда эл-юртимизнинг ишончини қозониб, Қонунчилик палатаси депутати деган юксак шарафга сазовор бўлган сиз, муҳтарам халқ вакиллари чин қалбимдан табриклаб, барчангизга сихат-саломатлик, фаолиятингизда янги-янги ютуқ ва омадлар тилашга ижозат бергайсиз.

Мен кўпчилик мана шу муҳташам залда ўтирганларни яқиндан билмасам ҳам, бугун сизларнинг иссиқ юзингизни, очиқ чеҳрангизни кўриб, ўзимни худдики сизлар билан яқиндан танишгандек ҳис қилмоқдаман. Ҳар қайси инсоннинг ҳаётида унинг ҳаёлида, хотирасида умрбод сақланиб қоладиган унутилмас воқеалар бўлади. Сизларнинг барчангиз учун бугун ана шундай катта хурсандчилик куни, десак, айти ҳақиқатни айтган бўламиз. Сизлар муяссар бўлган, юртимиз ҳаётида улкан воқеа бўлган бундай шарафга эришиш, яъни, халқ вакили бўлиб, беш йил

давомида парламентда иш олиб бориш, сайловчилар билдирган юксак ишончни оқлаш — **бу катта бахт, шу билан бирга, катта масъулият демақдир.** Ҳақиқатан ҳам, эл-юрт ишончига муносиб бўлиб, олдимизда турган буюк мақсадлар учун, Ўзбекистонимизнинг дунёдаги ривожланган демократик давлатлар қаторига кириши, халқимиз фаровонлигини янада ошириш, мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрўси ва нуфузини юксалтириш йўлида ўзини бахшида қилиш, вақти келганда, Ватанимизни янада раванк топтиришда менинг ҳам қўшган ҳиссам бор, деб мамнун бўлиб, рози бўлиб яшаш ҳаммага ҳам буюрмайди. Шу маънода, бугун мана шу гўзал ва ҳашаматли, янги тарихимиздаги кўп унутилмас воқеаларга гувоҳ бўлган бинога айна шундай ҳиссиётлар билан қадам қўяётган сиз, мухтарам депутатларга жамоатчилигимиз, сайловчиларимиз, ўттиз бир ярим миллионли халқимиз гўёки оқ фотиҳа бермоқда, десам, ўйлайманки, адашмаган бўламан. Менинг сизлар билан бугунги учрашув, бугунги чиқишимдан асосий мақсад — Олий Мажлиснинг аввалги таркибида иш олиб борган депутатлар фаолиятига баҳо бериш, янги сайланган парламентнинг вазифалари ҳақида сўз юритиш эмас.

Насиб этса, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг яқинда бўладиган қўшма мажлисида бу ҳақда атрофлича, чуқурроқ гаплашиб оламиз. Мен бугунги фурсатдан фойдаланиб, аввало, сиз, азизларим билан кўришиб, сизларни чин қалбимдан табриклаб, мамлакатимизни замон талаблари асосида, барқарор суръатлар билан тараққий эттириш, бунинг учун кенг кўламли демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш, шу борада олдимизда турган энг долзарб масалалар ҳақидаги айрим фикр-мулоҳазаларим билан ўртоқлашишни истардим.

Қадрли юртдошлар!

Бугун биз ғоят мураккаб, таҳликали ва қалтис бир замонда яшаётганимизни барчангиз яхши биласиз.

Ҳозирги вақтда дунёнинг узоқ-яқин турли ҳудудларида юз бераётган ташвишли воқеалар, жумладан, бизнинг минтақамизда, ён-атрофимизда кучайиб бораётган хавф-хатарлар, қонли тўқнашувлар, сиёсий ва иқтисодий қарама-қаршиликлар, терроризм, радикализм, наркотрафикнинг тобора авж олаётгани тинчлик ва барқарорликка қандай катта таҳдид туғдираётгани ҳақида, ўйлайманки, ортиқча гапириб ўтиришнинг ҳожати йўқ.

Мана шундай тобора кескинлашиб бораётган бир вазиятда биз ҳушёрлик ва сергаклигимизни йўқотмасдан, кимлар бизга хайрихоҳ, кимлар ғаразли кўз билан қараётганини, бугунги ҳаёт, бугунги давр бизнинг олдимизга қандай ўткир талаб ва вазифаларни қўяётганини чуқур англаб, огоҳ, сезгир ва сафарбар бўлиб яшашимиз талаб қилинмоқда.

Мана, собиқ Иттифоқнинг парчаланиб кетганига 23 йилдан ошди. Бир пайтлар унинг таркибида бўлган республикалар аста-секин оёққа туриб, қад ростлаб, мустақил тараққиёт йўлида қадам қўйишга интилноқда.

Айнан бизнинг Ватанимиз — Ўзбекистонимизни оладиган бўлсак, Яратганга минг бора шукурлар бўлсинким, бугунги кунда, аввало, халқимизнинг машаққатли ва фидокорона меҳнати ҳисобидан эришаётган ютуқ ва марраларимизни дўстларимиз ҳам, мухолифларимиз ҳам тан олмақда,

ислоҳотларимиз самарасини жаҳон ҳамжамияти эътироф этмоқда. **Баъзи давлатлар, қани, биз ҳам шундай натижаларга эришсак, деб бизга ҳавас билан қараётгани ҳам ҳеч кимга сир эмас.** Шу нуқтаи назардан қараганда, айрим собиқ иттифоқдош республикаларнинг бугунги ривожланиш даражаси ва улар дуч келаётган иқтисодий-ижтимоий муаммоларни Ўзбекистоннинг ҳозирги тараққиёти билан солиштирадиган бўлсак, ўртада қандай катта фарқ борлигини яққол кўриш, кузатиш қийин эмас. Биз тарихан қисқа даврда, ўтган асрнинг 90-йилларида, энг оғир ва таҳликали бир шароитда ортикча ҳиссиётларга берилмасдан, четдан бўлган турли тазйиқлар ва сохта ваъдаларга учмасдан, Ўзбекистонимиз учун яккаю ягона тўғри, яъни тадрижий, босқичма-босқич ривожланиш йўлини танлаб олганимиз, узокни кўзлаб, етти ўлчаб бир кесган ҳолда, бошқача айтганда, шошмашошарликка берилмасдан, “Мен минтақада биринчиман, мен дунёда биринчилар қаторидаман”, деган мактов сўзларни ишлатмасдан туриб, **пухта ўйланган вазмин сиёсат олиб борганимизни бугун ҳаётнинг ўзи қайта-қайта исботлаб бермоқда.**

Айнан ана шундай тўғри йўлни танлаганимиз туфайли мустақилликни мустаҳкамлаш, Ватанимизни ҳар томонлама тараққий эттириш, ривожланган демократик давлатлар сафидан муносиб ўрин эгаллаш, халқимиз ва келгуси авлодларимиз учун ҳеч кимдан кам бўлмаган ҳаёт шароитларини яратиш, Ўзбекистонимизнинг халқаро майдондаги обрў-эътиборини янада юксалтириш бўйича **улкан, айтиш мумкинки, асрларга тенг бўлган йўлни босиб ўтдик.** Бугун мустақил тараққиёт йўлимизни, амалга оширган ишларимизни сарҳисоб қилар эканмиз, авваламбор, бир ҳақиқатни такрор ва такрор айтишни ўринли деб биламан. Яъни, янги ҳаёт, янги жамият қуриш йўлида биз илгари ҳеч қачон дуч келмаган, тажрибамизда учрамаган ўта оғир ва машаққатли йўлни босиб ўтишимизга тўғри келди.

Ҳеч шубҳасиз, бу борада қандай муаммо ва синовларни, қийинчилик ва тўсиқларни енгишга тўғри келган бўлмасин, қандай суронли ва тўфонли кунларни бошимиздан кечирган бўлмайлик, халқимизнинг хоҳиш-иродаси билан танлаган ва дадил қадамлар билан бораётган йўлимиздан, **ўз олдимизга қўйган буюк мақсадларимиздан қайтмадик ва ҳеч қачон қайтмаймиз, десам, ўйлайманки, барчангиз бу фикрга қўшиласиз.**

Мана шундай ўта таҳликали вазиятда барчамиз бир ёқадан бош чиқариб, белни маҳкам боғлаб, қандай оғир бўлмасин, ўз йўлимизда қатъият билан давом этганимиз, чет мамлакатлардан таклиф қилинаётган сармояларни эл-юртимиз манфаатини кўзда тутиб, чуқур ўйлаб ишлатганимиз, такрор айтишим керак, биз учун энг тўғри йўл бўлди. Шу тариқа биз нафақат сиёсий, аввало, иқтисодий мустақиллигимизни сақлашга ва мустаҳкамлашга эришдик. Маълумки, ўтган асрнинг 90-йилларида бошқа совет республикалари қатори Ўзбекистон ҳам мустақил тараққиёт йўлига ўтди. Мустабид тузумдан бизга қандай оғир, қандай ночор мерос қолгани, халқимиз қанча азоб-уқубатлар тортганини ҳеч қачон унутмаслигимиз керак. “Пахта иши” деган уйдирма ва бўҳтонлар, Марказдан юборилган, ўзини “десантчилар” деб атаган ёвуз кучларнинг қонунни, адолатни, халқимизнинг шаъни ва ғурурини оёқости қилиб амалга оширган кирдикорлари ҳақидаги бор ҳақиқатни тўла очиб бериш лозим. Афсуски, тарихчиларимиз, адибларимиз бу ҳақда кам ёзади. Ҳолбуки,

биз учун олис тарих бўлган Амир Темур, Мирзо Улуғбек даври ҳақида қанча китоблар ёзилган. Ёзилиши керак ҳам. Айни пайтда биз бошимиздан кечирган кечаги кун, яқин тарихимизда рўй берган мана шундай фожиали воқеаларни ҳам бугунги ва келажак авлодларимизнинг онгу шуурига етказиш ҳақида ҳам бош қотиришимиз зарур. Униб-ўсиб келаятган ёшларимизни тарих сабоқлари билан, тарих ҳақиқати билан қуроллантириш лозим. Мактабларимизда, лицей ва коллежларда, олий ўқув юртларимизда айни шу мавзуларни холис ва ҳаққоний ёритиб беришга янада кўпроқ эътибор қаратишимиз керак. Бунинг учун аввало мустақилликка эришиш арафасидаги оғир кунларни бевосита кўрган, шу воқеаларнинг гувоҳи бўлган одамларнинг эсдалик ва хотираларини ёзиб олиш зарур.

Шуни эсда тутиш керакки, тарихни унутган халқ, жамият ўз йўлини йўқотади. Бундай халқ ва жамиятнинг келажаги йўқ. Бугунги кунда баъзи мамлакатларда эски совет даврини кўмсаш, ўша замонга қайтиш учун турли уринишлар бўляпти. Айрим хорижий телеканалларда Ленин даврини, Сталин даврини, СССРни улуғлаш кайфиятлари кучайиб борапти. Бундай қараш, бундай ёндашув бизга асло маъқул эмас. Бизнинг ўз ақлимиз, билим ва тажрибамиз, халқимизнинг хоҳиш-иродаси билан танлаб олган йўлимиз бор. Биз қарамлик ва тутқунликка қайтишга ҳеч қачон рози бўлмаймиз. Ота-боболаримиз айтганидек, кўр ҳассасини бир марта йўқотади. Мен Конституциямизнинг 22 йиллигига бағишланган тантанали йиғилишда билдирган фикримни яна бир бор таъкидлаб айтмоқчиман — биз эски тузумни тиклашга қаратилган ҳеч қандай иттифоққа ҳеч қачон қирмаймиз, мустақил совет даврига асло қайтмаймиз. Шахсан мен бутун ҳаётимни, бутун умримни халқимизнинг озодлигига, Ватанимиз мустақиллигига бағишладим ва бу йўлдан ҳеч қачон қайтмайман. Маълумки, иқтисодий мустақилликка эришмасдан туриб сиёсий мустақилликка эришиб бўлмайди. Ёдингизда бўлса, 90-йилларда четдан бизга маслаҳат берадиган, ақл ўргатадиган қандай “доҳий”лар, қандай иқтисодчилар майдонга чиққан эди. Улар бошқаларнинг тажрибасидан кўр-кўрона нусха олишга, мавжуд вазият, миллий хусусият ва анъаналарни четга суриб қўйиб, қанчалик урингани ҳали-ҳамон эсимизда.

**Халқимизда бир эшикка киришдан олдин чиқишни ўйлаш керак, деган мақол бор.** Ўзингиз ўйланг, қарз ҳисобида олган сармояларни қайёққа ишлатишни олдиндан пухта ўйламасдан, аниқ стратегик лойиҳаларни амалга ошириш ўрнига бошқаларга ўхшаб, еб қўйган бўлганимизда, бугун қандай аҳволда бўлардик? **Бу ҳақиқатни ҳеч қачон эсимиздан чиқармаслигимиз зарур деб биламан.**

Лекин ҳаммамизга яхши маълумки, ҳаёт ҳеч қачон бир жойда тўхтаб турмайди, шиддат билан, жадал суръатлар билан доимо олдинга интилади. Кимки ҳаётнинг тараққиёт суръатлари билан ҳамқадам бўлмаса, унга лоқайд ва беписанд қараса, **эришган ютуқларига маҳлиё бўлиб, хотиржамлик ва ҳаволаниш кайфиятига берилса, ҳеч шубҳасиз, тез ўзгариб бораётган тарихнинг бир чеккасида, қолоқлик ва армонда қолиб кетади.** Бу — ҳаётнинг бешафқат, аччиқ ҳақиқати ва биз буни асло унутмаслигимиз керак.

Бугунги кунда биз юртимизда ҳуқуқий демократик давлат, эркин фуқаролик

жамияти куришга қаратилган олис ва оғир йўлнинг фақат бир қисминигина босиб ўтдик, холос. Унинг ҳал қилувчи қисми ҳали олдинда. Яъни, бу йўлда ўз ечимини кутиб турган вазифаларимиз камайгани йўқ, аксинча, замон талаби билан уларнинг кўлами ва миқёси тобора кенгайиб бормоқда. Албатта, барчамиз бу ҳақиқатни яхши тушунамиз ва бу йўлда яна қанчадан-қанча кутилмаган қийинчиликлар, турли синовлар бўлиши мумкинлигини ҳам ўзимизга тасаввур қиламиз.

Бу борада ҳаётнинг ана шундай талаб ва мезонларини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган ва ўтган давр мобайнида изчил жорий этиб келинаётган, амалда ўзини оқлаган, “ўзбек модели” деб ном олган тараққиёт йўлимиз ва Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси ўрта ва узоқ истиқболда биз учун келажак Стратегияси бўлиб хизмат қилмоқда, аниқ йўлни кўрсатмоқда.

Қадрли депутатлар!

Сизлар ўз зиммангизга олган вазифаларни адо этишда, албатта, кўп жиҳатдан ўрганишга, тажриба топишга тўғри келади. Шунинг учун ҳам ўрганишга, ўз устингизда ишлашга, профессионал даражангизни оширишга доим тайёр бўлишингиз керак. Ҳар биримиз ўқиш-ўрганишдан ҳеч қачон тортинмаслигимиз зарур. Ҳамма нарсани биламан, деган одам янглишади. Қаранг, бугун болаларимиз ўқиб-ўрганиб, ўз устида ишлаб ҳар томонлама соғлом ва баркамол бўлиб улғаймоқда. Мустақил фикрлайдиган, замонавий илм-фан ва касб-хунарларни пухта эгаллаган, ўз юрти, ўз халқига фидойи, биз бошлаган ишларни давом эттиришга қодир бўлган бундай авлодни енгиб бўладими? Бугун биз ўз олдимизга қўйган юксак мақсадларга етишда ана шу навқирон авлодимиз ҳал қилувчи куч бўлиб майдонга чиқаётгани барчамизга ғурур ва ифтихор бағишлайди.

Яна бир бор таъкидлайман, доимо ўрганиш, изланиш, янгиликка интилиб яшаш керак. Бугунги кунда қайси давлат юксак тараққиётга эришган бўлса — бу Жанубий Корея ёки Япония бўладими, Европа давлатлари бўладими — буларнинг барчасидан ўрганиш керак. Бу борада биз учун ҳеч қандай мафкуравий чеклашлар йўқ. Биз учун ягона мафкура — бу Ўзбекистоннинг тараққиёти, Ўзбекистоннинг равнақи, Ўзбекистоннинг дунёда ҳеч кимдан кам бўлмаслигидир.

Биз, давлатимизнинг ташқи сиёсат стратегиясига амал қилган ҳолда, турли сиёсий-ҳарбий блоklarга қўшилмаймиз, ўз худудимизда хорижий ҳарбий базалар ташкил қилишга йўл қўймаймиз. Бизнинг мақсадимиз битта, у ҳам бўлса, юртимизда тинчлик ва осойишталикни мустаҳкамлаш, узоқ ва яқин қўшниларимиз билан тил топишиб, аҳил ва иноқ бўлиб яшашдан иборат. Барчамизга маълумки, депутат қайси партияга мансуб бўлмасин, биринчи навбатда, сайловчилар олдида, эл-юрт олдида жавоб беради. Партиялар жамиятнинг маълум бир қатлами манфаатларини ифода этадиган ва ҳимоя қиладиган куч сифатида парламентда бир-бирига рақиб ёки муҳолиф бўлиши табиийдир.

Лекин ягона Ватанимиз бўлмиш Ўзбекистон манфаати, ягона халқ манфаатлари ҳақида сўз борганда, уларнинг барчаси бир мушт бўлиб бирлашиши даркорлигини ҳеч қачон ёдимиздан чиқармаслигимиз зарур. Бугунги кунда

мамлакатимизда миллий ғоямиз — юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ фаровонлиги каби эзгу мақсадлар ана шундай бирлаштирувчи куч бўлиб хизмат қилаётганидан сизлар албатта яхши хабардорсиз. Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда амалга оширилаётган демократик ўзгариш ва янгиликлар туфайли парламентнинг ваколат доираси янада кенгайди. Конституциямизга тегишли ўзгаришлар киритдик. Ҳокимиятнинг учта бўлишига, яъни, қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниши, улар ўртасидаги ўзаро тийиб туриш ва манфаатлар мувозанати тизимини яратиш бўйича аниқ ишлар қилинди. Айни вақтда парламент таркиби — структураси, унинг баъзи бир ташкилий жиҳатлари эски замонни эслатишини, ҳали-бери расмийлик аломатлари сақланиб қолаётганини ҳам очиқ айтишимиз ва бу муаммоларни ҳал қилиш устида ишлашимиз керак. Мухтарам дўстлар!

Ўзингиз кўриб турибсиз, дунёда олдин ҳеч содир бўлмаган, учрамаган ўта оғир, ўта мураккаб зиддият ва низолар, сиёсий қарама-қаршиликлар, жаҳон миқёсида 2008 йили бошланган молиявий-иқтисодий инқироз ва унинг оқибатлари давом этаётган, бир сўз билан айтганда, ноаниқлик ва охирини олдиндан айтиб бўлмайдиган воқеалар юз беришининг гувоҳи бўлмоқдамиз. Мана шундай ғоят мураккаб вазиятда янги — 2015 йил ва ундан кейинги йилларда биз ўз олдимизга қўяётган кенг қўламли ислохотларни янги босқичда давом эттириш, иқтисодиётимизни барқарор суръатлар билан ривожлантириш, лўнда қилиб айтганда, юртимизни, Ватанимизни янада обод ва фаровон этишдек аниқ ва эзгу мақсадларга эришиш мумкинми, деган безовталиқ пайдо бўлиши мумкин.

Буни ҳам тўғри тушуниш керак. Лекин мана шундай ўта масъулиятли пайтда бир чеккада томошабин бўлиб ўтириш асло мумкин эмас. Файласуфлар айтганидек, бу дунёда душмандан эмас, аввало, лоқайд, бепарво ва бетараф одамлардан кўркиш керак. Менинг сизларга тилагим, даъватим шуки, халқ вакиллари аввало курашчи бўлиши керак. Мана шу муқаддас замин учун, Ўзбекистонимиз учун, халқимизнинг тинчлиги, фарзандларимизнинг бахтли келажаги учун барчамиз бир ёқадан бош чиқариб, ишлашимиз, курашишимиз зарур.

Мен чет эллик сиёсий арбоблар, катта ишбилармонлар билан учрашганда, улар бизнинг фарзандларимиз ҳақида ҳавас билан “Ёшларингизнинг кўзи ёниб туради” деган фикрни кўп эшитаман. Ҳақиқатан ҳам, ҳаётда Ватани, халқи учун курашга бел боғлаган, софдил, иродаси мустаҳкам ёшларнинг кўзлари ёниб туради. Бугун мана шу залда ҳам кўзлари ана шундай ёниб турган одамларни кўриб, “Балли, сизларга!” деб айтмоқчиман. Юқорида зикр этилган хавотирли саволларга нисбатан, ўйлайманки, барчамизнинг жавобимиз битта, яъни, биз босиб ўтган ривожланиш йўлини, эришган марра ва ютуқларимиз, энг муҳими, бизнинг бугунги салоҳиятимиз, куч-қудратимизни 90-йиллардаги давр билан мутлақо солиштириб бўлмайди. Чунки бизнинг бугунги халқимиз, бизнинг бугунги жамиятимиз — бундан ўн йил, йигирма йил олдинги халқ ва жамият эмас. **Бугунги кунда одамларимизнинг фикри-зикри, дунёга, ҳаётга қараши тубдан ўзгариб, уларнинг тобора юксалиб бораётган сиёсий савияси ва**

хукукий маданияти, фаол гражданлик позицияси, биз ҳеч кимдан кам эмасмиз ва ҳеч қачон кам бўлмаймиз, деган азму қарор билан олдинга интилаётгани биз эришган ва келгусида қўлга киритадиган катта-катта ютуқ ва марраларнинг мустаҳкам пойдевориغا айланаётганини кўрмаслик, англамаслик ва буни тан олмаслик мумкин эмас. Йиллар, асрлар синовида тобланган, кўпни кўрган, бугун эркинлик ҳавосидан нафас олиб яшаётган, ўз қадр-қимматини, инсоний шаънини, не-не улуғ зотларнинг ворислари эканини, ўзлигини англаган, миллий ғурур ва ифтихорини тиклаган, халқаро майдонда ўзига муносиб ўрин эгаллаб бораётган, ўз кучи ва эртанги кунига ишонган, ўз юрти, ўз фарзандларининг келажаги фаровон бўлишига интиладиган бундай халқни ҳеч қандай куч тўхтатолмайди. Мана шундай меҳнаткаш, олижаноб ва бағрикенг халққа фарзандлик садоқати билан хизмат қилиш — барчамиз учун юксак шараф, олий саодатдир.

Азиз юртдошларим, ҳурматли депутатлар, мана шу эзгу мақсадларга эришиш йўлида барчангизга яна бир бор бахт ва омад тилайман.



**PREZIDENT ISLOM KARIMOVNING O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASINING  
BIRINCHI TASHKILY YIG‘ILISHIDAGI NUTQI**



**12.01.2015**

Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!

Aziz do‘stlar!

Avvalambor, yurtimizda Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz asosida, qizg‘in kurashlar ruhida bo‘lib o‘tgan saylovlarda el-yurtimizning ishonchini qozonib, Qonunchilik palatasi deputati degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgan siz, muhtaram xalq vakillarini chin qalbimdan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, faoliyatingizda yangi-yangi yutuq va omadlar tilashga ijozat bergaysiz.

Men ko‘pchilik mana shu muhtasham zalda o‘tirganlarni yaqindan bilmasam ham, bugun sizlarning issiq yuzingizni, ochiq chehrangizni ko‘rib, o‘zimni xuddiki sizlar bilan yaqindan tanishgandek his qilmoqdaman.

Har qaysi insonning hayotida uning xayolida, xotirasida umrbod saqlanib qoladigan unutilmas voqealar bo‘ladi.

Sizlarning barchangiz uchun bugun ana shunday katta xursandchilik kuni, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Sizlar muyassar bo‘lgan, yurtimiz hayotida ulkan voqea bo‘lgan bunday sharafga erishish, ya‘ni, xalq vakili bo‘lib, besh yil



davomida parlamentda ish olib borish, saylovchilar bildirgan yuksak ishonchni oqlash – bu katta baxt, shu bilan birga, katta mas’uliyat demakdir.

Haqiqatan ham, el-yurt ishonchiga munosib bo‘lib, oldimizda turgan buyuk maqsadlar uchun, O‘zbekistonimizning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi, xalqimiz farovonligini yanada oshirish, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘si va nufuzini yuksaltirish yo‘lida o‘zini baxshida qilish, vaqti kelganda, Vatanimizni yanada ravnaq toptirishda mening ham qo‘shgan hissam bor, deb mamnun bo‘lib, rozi bo‘lib yashash hammaga ham buyurmaydi.

Shu ma’noda, bugun mana shu go‘zal va hashamatli, yangi tariximizdagi ko‘p unutilmas voqealarga guvoh bo‘lgan binoga ayni shunday hissiyotlar bilan qadam qo‘yayotgan siz, muhtaram deputatlarga jamoatchiligimiz, saylovchilarimiz, o‘ttiz bir yarim millionli xalqimiz go‘yoki oq fotiha bermoqda, desam, o‘ylaymanki, adashmagan bo‘laman.

Mening sizlar bilan bugungi uchrashuv, bugungi chiqishimdan asosiy maqsad – Oliy Majlisning avvalgi tarkibida ish olib borgan deputatlar faoliyatiga baho berish, yangi saylangan parlamentning vazifalari haqida so‘z yuritish emas.

Nasib etsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining yaqinda bo‘ladigan qo‘shma majlisida bu haqda atroflicha, chuqurroq gaplashib olamiz.

Men bugungi fursatdan foydalanib, avvalo, siz, azizlarim bilan ko‘rishib, sizlarni chin qalbimdan tabriklab, mamlakatimizni zamon talablari asosida, barqaror sur‘atlar bilan taraqqiy ettirish, buning uchun keng ko‘lamli demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, shu borada oldimizda turgan eng dolzarb masalalar haqidagi ayrim fikr-mulohazalarim bilan o‘rtoqlashishni istardim.

Qadrli yurtdoshlar!

Bugun biz g‘oyat murakkab, tahlikali va qaltis bir zamonda yashayotganimizni barchangiz yaxshi bilasiz.

Hozirgi vaqtda dunyoning uzoq-yaqin turli hududlarida yuz berayotgan tashvishli voqealar, jumladan, bizning mintaqamizda, yon-atrofimizda kuchayib borayotgan xavf-xatarlar, qonli to‘qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar, terrorizm, radikalizm, narkotrafikning tobora avj olayotgani tinchlik va barqarorlikka qanday katta tahdid tug‘dirayotgani haqida, o‘ylaymanki, ortiqcha gapirib o‘tirishning hojati yo‘q.

Mana shunday tobora keskinlashib borayotgan bir vaziyatda biz hushyorlik va sergakligimizni yo‘qotmasdan, kimlar bizga xayrixoh, kimlar g‘arazli ko‘z bilan qarayotganini, bugungi hayot, bugungi davr bizning oldimizga qanday o‘tkir talab va vazifalarni qo‘yayotganini chuqur anglab, ogoh, sezgir va safarbar bo‘lib yashashimiz talab qilinmoqda.

Mana, sobiq Ittifoqning parchalanib ketganiga 23-yildan oshdi. Bir paytlar uning tarkibida bo‘lgan respublikalar asta-sekin oyoqqa turib, qad rostlab, mustaqil taraqqiyot yo‘lida qadam qo‘yishga intilmoqda.

Aynan bizning Vatanimiz – O‘zbekistonimizni oladigan bo‘lsak, Yaratganga ming bora shukurlar bo‘lsinkim, bugungi kunda, avvalo, xalqimizning mashaqqatli va fidokorona mehnati hisobidan erishayotgan yutuq va marralarimizni do‘stlarimiz ham, muxoliflarimiz ham tan olmoqda, islohotlarimiz samarasini jahon hamjamiyati e’tirof etmoqda. Ba’zi davlatlar, qani, biz ham shunday natijalarga erishsak, deb bizga havas bilan qarayotgani ham hech kimga sir emas.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayrim sobiq ittifoqdosh respublikalarning bugungi rivojlanish darajasi va ular duch kelayotgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni O'zbekistonning hozirgi taraqqiyoti bilan solishtiradigan bo'lsak, o'rtada qanday katta farq borligini yaqqol ko'rish, kuzatish qiyin emas.

Biz tarixan qisqa davrda, o'tgan asrning 90-yillarida, eng og'ir va tahlikali bir sharoitda ortiqcha hissiyotlarga berilmasdan, chetdan bo'lgan turli tazyiqlar va soxta va'dalarga uchmasdan, O'zbekistonimiz uchun yakkayu yagona to'g'ri, ya'ni tadrijiy, bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini tanlab olganimiz, uzoqni ko'zlab, yetti o'lchab bir kesgan holda, boshqacha aytganda, shoshma-shosharlikka berilmasdan, "Men mintaqada birinchiman, men dunyoda birinchilar qatoridaman" degan maqtov so'zlarni ishlatmasdan turib, puxta o'ylangan vazmin siyosat olib borganimizni bugun hayotning o'zi qayta-qayta isbotlab bermoqda.

Aynan ana shunday to'g'ri yo'lni tanlaganimiz tufayli mustaqillikni mustahkamlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, rivojlangan demokratik davlatlar safidan munosib o'rin egallash, xalqimiz va kelgusi avlodlarimiz uchun hech kimdan kam bo'lmagan hayot sharoitlarini yaratish, O'zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish bo'yicha ulkan, aytish mumkinki, asrlarga teng bo'lgan yo'lni bosib o'tdik.

Bugun mustaqil taraqqiyot yo'limizni, amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor, bir haqiqatni takror va takror aytishni o'rinli deb bilaman. Ya'ni, yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo'lida biz ilgari hech qachon duch kelmagan, tajribamizda uchramagan o'ta og'ir va mashaqqatli yo'lni bosib o'tishimizga to'g'ri keldi.

Hech shubhasiz, bu borada qanday muammo va sinovlarni, qiyinchilik va to'siqlarni yengishga to'g'ri kelgan bo'lmasin, qanday suronli va to'fonli kunlarni boshimizdan kechirgan bo'lmaylik, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlagan va dadil qadamlar bilan borayotgan yo'limizdan, o'z oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizdan qaytmadik va hech qachon qaytmaymiz, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz.

Mana shunday o'ta tahlikali vaziyatda barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, belni mahkam bog'lab, qanday og'ir bo'lmasin, o'z yo'limizda qat'iyat bilan davom etganimiz, chet mamlakatlardan taklif qilinayotgan sarmoyalarni el-yurtimiz manfaatini ko'zda tutib, chuqur o'ylab ishlatganimiz, takror aytishim kerak, biz uchun eng to'g'ri yo'l bo'ldi. Shu tariqa biz nafaqat siyosiy, avvalo, iqtisodiy mustaqilligimizni saqlashga va mustahkamlashga erishdik.

Ma'lumki, o'tgan asrning 90-yillarida boshqa sovet respublikalari qatori O'zbekiston ham mustaqil taraqqiyot yo'lga o'tdi. Mustabid tuzumdan bizga qanday og'ir, qanday nochor meros qolgani, xalqimiz qancha azob-uqubatlar tortganini hech qachon unutmashimiz kerak. "Paxta ishi" degan uydirma va bo'htonlar, Markazdan yuborilgan, o'zini "desantchilar" deb atagan yovuz kuchlarning qonunni, adolatni, xalqimizning sha'ni va g'ururini oyoqosti qilib amalga oshirgan kirdikorlari haqidagi bor haqiqatni to'la ochib berish lozim. Afsuski, tarixchilarimiz, adiblarimiz bu haqda kam yozadi. Holbuki, biz uchun olis tarix bo'lgan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek davri haqida qancha kitoblar yozilgan. Yozilishi kerak ham. Ayni paytda biz boshimizdan kechirgan kechagi kun, yaqin tariximizda ro'y bergan mana shunday fojiali voqealarni ham bugungi va kelajak avlodlarimizning ongu shuuriga yetkazish

haqida ham bosh qotirishimiz zarur. Unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni tarix saboqlari bilan, tarix haqiqati bilan qurollantirish lozim.

Maktablarimizda, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarimizda ayni shu mavzularni xolis va haqqoniy yoritib berishga yanada ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak. Buning uchun avvalo mustaqillikka erishish arafasidagi og'ir kunlarni bevosita ko'rgan, shu voqealarning guvohi bo'lgan odamlarning esdalik va xotiralarini yozib olish zarur.

Shuni esda tutish kerakki, tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q.

Bugungi kunda ba'zi mamlakatlarda eski sovet davrini qo'msash, o'sha zamonga qaytish uchun turli urinishlar bo'lyapti. Ayrim xorijiy telekanallarda Lenin davrini, Stalin davrini, SSSRni ulug'lash kayfiyatlari kuchayib boryapti. Bunday qarash, bunday yondashuv bizga aslo ma'qul emas. Bizning o'z aqlimiz, bilim va tajribamiz, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan yo'limiz bor. Biz qaramlik va tutqunlikka qaytishga hech qachon rozi bo'lmaymiz. Ota-bobolarimiz aytganidek, ko'r hassasini bir marta yo'qotadi.

Men Konstitutsiyamizning 22-yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda bildirgan fikrimni yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman – biz eski tuzumni tiklashga qaratilgan hech qanday ittifoqqa hech qachon kirmaymiz, mustabid sovet davriga aslo qaytmaymiz. Shaxsan men butun hayotimni, butun umrimni xalqimizning ozodligiga, Vatanimiz mustaqilligiga bag'ishladim va bu yo'ldan hech qachon qaytmayman.

Ma'lumki, iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib siyosiy mustaqillikka erishib bo'lmaydi. Yodingizda bo'lsa, 90-yillarda chetdan bizga maslahat beradigan, aql o'rgatadigan qanday "dohiy"lar, qanday iqtisodchilar maydonga chiqqan edi. Ular boshqalarning tajribasidan ko'r-ko'rona nusxa olishga, mavjud vaziyat, milliy xususiyat va an'analarni chetga surib qo'yib, qanchalik uringani hali-hamon esimizda.

Xalqimizda bir eshikka kirishdan oldin chiqishni o'ylash kerak, degan maqol bor. O'zingiz o'ylang, qarz hisobida olgan sarmoyalarni qayoqqa ishlatishni oldindan puxta o'ylamasdan, aniq strategik loyihalarni amalga oshirish o'rniga boshqalarga o'xshab, yeb qo'ygan bo'lganimizda, bugun qanday ahvolda bo'lardik? Bu haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur deb bilaman.

Lekin hammamizga yaxshi ma'lumki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi, shiddat bilan, jadal sur'atlar bilan doimo oldinga intiladi. Kimki hayotning taraqqiyot sur'atlari bilan hamqadam bo'lmasa, unga loqayd va bepisand qarasa, erishgan yutuqlariga mahliyo bo'lib, xotirjamlik va havolanish kayfiyatiga berilsa, hech shubhasiz, tez o'zgarib borayotgan tarixning bir chekkasida, qoloqlik va armonda qolib ketadi. Bu – hayotning beshafqat, achchiq haqiqati va biz buni aslo unutmasligimiz kerak.

Bugungi kunda biz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan olis va og'ir yo'lning faqat bir qisminigina bosib o'tdik, xolos. Uning hal qiluvchi qismi hali oldinda. Ya'ni, bu yo'lda o'z yechimini kutib turgan vazifalarimiz kamaygani yo'q, aksincha, zamon talabi bilan ularning ko'lami va miqyosi tobora kengayib bormoqda. Albatta, barchamiz bu haqiqatni yaxshi tushunamiz va bu yo'lda yana qanchadan-qancha kutilmagan qiyinchiliklar, turli sinovlar bo'lishi mumkinligini ham o'zimizga tasavvur qilamiz.

Bu borada hayotning ana shunday talab va mezonlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va o'tgan davr mobaynida izchil joriy etib kelinayotgan, amalda o'zini oqlagan, "o'zbek modeli" deb nom olgan taraqqiyot yo'limiz va Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi o'rta va uzoq istiqbolda biz uchun kelajak Strategiyasi bo'lib xizmat qilmoqda, aniq yo'lni ko'rsatmoqda.

Qadrli deputatlar!

Sizlar o'z zimmangizga olgan vazifalarni ado etishda, albatta, ko'p jihatdan o'rganishga, tajriba topishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham o'rganishga, o'z ustingizda ishlashga, professional darajangizni oshirishga doim tayyor bo'lishingiz kerak. Har birimiz o'qish-o'rganishdan hech qachon tortinmasligimiz zarur. Hamma narsani bilaman, degan odam yanglishadi. Qarang, bugun bolalarimiz o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlab har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib ulg'aymoqda. Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan bunday avlodni yengib bo'ladimi? Bugun biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga yetishda ana shu navqiron avlodimiz hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Yana bir bor ta'kidlayman, doimo o'rganish, izlanish, yangilikka intilib yashash kerak. Bugungi kunda qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishgan bo'lsa – bu Janubiy Koreya yoki Yaponiya bo'ladimi, Yevropa davlatlari bo'ladimi – bularning barchasidan o'rganish kerak. Bu borada biz uchun hech qanday mafkuraviy cheklashlar yo'q. Biz uchun yagona mafkura – bu O'zbekistonning taraqqiyoti, O'zbekistonning ravnaqi, O'zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligidir.

Biz, davlatimizning tashqi siyosat strategiyasiga amal qilgan holda, turli siyosiy-harbiy bloklarga qo'shilmaymiz, o'z hududimizda xorijiy harbiy bazalar tashkil qilishga yo'l qo'ymaymiz. Bizning maqsadimiz bitta, u ham bo'lsa, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, uzoq va yaqin qo'shnilarimiz bilan til topishib, ahil va inoq bo'lib yashashdan iborat.

Barchamizga ma'lumki, deputat qaysi partiyaga mansub bo'lmasin, birinchi navbatda, saylovchilar oldida, el-yurt oldida javob beradi. Partiyalar jamiyatning ma'lum bir qatlami manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan kuch sifatida parlamentda bir-biriga raqib yoki muxolif bo'lishi tabiiydir.

Lekin yagona Vatanimiz bo'lmish O'zbekiston manfaati, yagona xalq manfaatlari haqida so'z borganda, ularning barchasi bir musht bo'lib birlashishi darkorligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz zarur. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy g'oyamiz – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar ana shunday birlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qilayotganidan sizlar albatta yaxshi xabardorsiz.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarish va yangilanishlar tufayli parlamentning vakolat doirasi yanada kengaydi. Konstitutsiyamizga tegishli o'zgartishlar kiritdik. Hokimiyatning uchta bo'g'inga, ya'ni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi, ular o'rtasidagi o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini yaratish bo'yicha aniq ishlar qilindi.

Ayni vaqtda parlament tarkibi – strukturasi, uning ba'zi bir tashkiliy jihatlari eski zamoni eslatishini, hali-beri rasmiyatchilik alomatlari saqlanib qolayotganini ham ochiq aytishimiz va bu muammolarni hal qilish ustida ishlashimiz kerak.

Muhtaram do'stlar!

O'zingiz ko'rib turibsiz, dunyoda oldin hech sodir bo'lmagan, uchramagan o'ta og'ir, o'ta murakkab ziddiyat va nizolar, siyosiy qarama-qarshiliklar, jahon miqyosida 2008-yili boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari davom etayotgan, bir so'z bilan aytganda, noaniqlik va oxirini oldindan aytib bo'lmaydigan voqealar yuz berishining guvohi bo'lmoqdamiz.

Mana shunday g'oyat murakkab vaziyatda yangi – 2015-yil va undan keyingi yillarda biz o'z oldimizga qo'yayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichda davom ettirish, iqtisodiyotimizni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirish, lo'nda qilib aytganda, yurtimizni, Vatanimizni yanada obod va farovon etishdek aniq va ezgu maqsadlarga erishish mumkinmi, degan bezovtalik paydo bo'lishi mumkin.

Buni ham to'g'ri tushunish kerak. Lekin mana shunday o'ta mas'uliyatli paytda bir chekkada tomoshabin bo'lib o'tirish aslo mumkin emas. Faylasuflar aytganidek, bu dunyoda dushmandan emas, avvalo, loqayd, beparvo va betaraf odamlardan qo'rqish kerak. Mening sizlarga tilagim, da'vatim shuki, xalq vakillari avvalo kurashchi bo'lishi kerak. Mana shu muqaddas zamin uchun, O'zbekistonimiz uchun, xalqimizning tinchligi, farzandlarimizning baxtli kelajagi uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, ishlashimiz, kurashishimiz zarur.

Men chet ellik siyosiy arboblardan, katta ishbilarmonlar bilan uchrashganda, ular bizning farzandlarimiz haqida havas bilan "Yoshlaringizning ko'zi yonib turadi" degan fikrni ko'p eshitaman. Haqiqatan ham, hayotda Vatani, xalqi uchun kurashga bel bog'lagan, sofdil, irodasi mustahkam yoshlarning ko'zlari yonib turadi. Bugun mana shu zalda ham ko'zlari ana shunday yonib turgan odamlarni ko'rib, "Balli, sizlarga!" deb aytmogchiman.

Yuqorida zikr etilgan xavotirli savollarga nisbatan, o'ylaymanki, barchamizning javobimiz bitta, ya'ni, biz bosib o'tgan rivojlanish yo'lini, erishgan marra va yutuqlarimiz, eng muhimi, bizning bugungi salohiyatimiz, kuch-qudratimizni 90-yillardagi davr bilan mutlaqo solishtirib bo'lmaydi. Chunki bizning bugungi xalqimiz, bizning bugungi jamiyatimiz – bundan o'n yil, yigirma yil oldingi xalq va jamiyat emas.

Bugungi kunda odamlarimizning fikri-zikri, dunyoga, hayotga qarashi tubdan o'zgarib, ularning tobora yuksalib borayotgan siyosiy saviyasi va huquqiy madaniyati, faol grajdanlik pozitsiyasi, biz hech kimdan kam emasmiz va hech qachon kam bo'lmaymiz, degan azmu qaror bilan oldinga intilayotgani biz erishgan va kelgusida qo'lga kiritadigan katta-katta yutuq va marralarning mustahkam poydevoriga aylanayotganini ko'rmaslik, anglamaslik va buni tan olmaslik mumkin emas.

Yillar, asrlar sinovida toblangan, ko'pni ko'rgan, bugun erkinlik havosidan nafas olib yashayotgan, o'z qadr-qimmatini, insoniy sha'nini, ne-ne ulug' zotlarning vorislari ekanini, o'zligini anglagan, milliy g'urur va iftixorini tiklagan, xalqaro maydonda o'ziga munosib o'rin egallab borayotgan, o'z kuchi va ertangi kuniga ishongan, o'z yurti, o'z farzandlarining kelajagi farovon bo'lishiga intiladigan bunday xalqni hech qanday kuch to'xtatolmaydi.

Mana shunday mehnatkash, olijanob va bag'rikeng xalqqa farzandlik sadoqati bilan xizmat qilish – barchamiz uchun yuksak sharaf, oliy saodatdir.

Aziz yurtdoshlarim, hurmatli deputatlar, mana shu ezgu maqsadlarga erishish yo'lida barchangizga yana bir bor baxt va omad tilayman.